



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-fevral

VII-6-20-5-74-K/25

Nurota tumani

Tuman mahalliy budjetining 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 27, 126-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ryespublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida” gi KQ-331-IV-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan namunaviy Nizomga muvofiq, tuman iqtisodiyot moliya bo‘limining 2025-yil 19-fevraldagi №01-12-238/20-01-38/126-sonli xati, ushbu bo‘yicha xulosasi va tuman soliq inspeksiyasining xulosasi hamda tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyaning xulosasini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalariga asosan, xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash hamda budjet tashkilotlari va muassalari, budjetdan mablag‘ oluvchilarning murojaatlarida ko‘rsatib o‘tilgan tadbirlarni mablag‘ bilan ta‘minlash maqsadida tuman mahalliy budjetining 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ilovaga muvofiq jami 812,7 mln.so‘m mablag‘ ajratilsin.

2.Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi kotibiyati (Sh.Hamidova) tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratilgan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchilarning ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari to‘g‘risidagi hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida eshitib borilishini ta‘minlasin.

3.Budjet tashkilotlari va muassasalari hamda budjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlasin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi, tuman G'aznachilik xizmati bo'limi mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i (A.Bo'riyev) va xalq deputatlari Nurota tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya (Sh.Axmedov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



FAYZIYEV AZAMAT
ISMATOVICH

Xalq deputatlari Nurota tumani Kengashining
2025-yil 25-fevraldagi
VII-6-20-5-74-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Nurota tuman mahalliy byudjetining 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar

T/r	Tashkilot va muassasa nomi	Maqsadi	Yo‘naltiriladigan mablag‘lar (mln.so‘mda)	IZOH
1	Tuman hokimligiga	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	243,8	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi PQ-5072-sonli qarori
		“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	100,0	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi "Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi 312-son qarori
		"Ayollar daftari"ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab quvvatlash xarajatlari uchun jamg‘armaga	327,4	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022 yildagi "Xotin qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi 145-son qarori
		Bolalar sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasiga	15,0	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2022 yildagi "Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi PQ-427-sonli qarori
		Tumandagi “Keksalar maslahati” guruhlarini rahbarlarini rag‘batlantirish xarajatlari uchun	17,3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.03.2023 yildagi "Keksa avlod vakillari har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi PQ-92-sonli qarori

		Tashkiliy kadrlar guruhi xodimini qo‘shimcha rag‘batlantirish xarajatlari uchun	22,2	Tashkiliy kadrlar guruhi rahbarining 2024 yil 6-noyabrdagi 09-02/92-sonli bildirgisi
		Qo‘riqlash xizmati xarajatlari uchun	87,0	Tuman hokimining 1-chi o‘rinbosai A.Bo‘riyevning bildirgisi
Jami		x	812,7	x